

MUSTAMLAKA TURKISTONDA XORIYIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI

Abdimurodov Shahboz Davron o'g'li

Oriental universiteti 2-kurs magistranti

Yakubova Muxtaram Bakayevna

Ilmiy rahbar: Samarqand davlat universiteti dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22827292>

Qabul qilindi: 12-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 17-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 18-sentabr 2026-yil

Annotatsiya. Ushbu maqolada sovet hokimiyatining Turkistonda amalga oshirgan agrar-iqtisodiy siyosati, xususan, xususiy mulkni musodara qilish, yer-mulklarni davlat tasarrufiga o'tkazish, mulkdor va tadbirkorlarni ta'qib etish hamda kollektivlashtirish jarayonlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1918-yildan boshlab yer, korxona, mablag' va paxta mahsulotlarining musodara qilinishi, mahalliy iqtisodiy faol qatlamning siyosiy va iqtisodiy jihatdan cheklanishi hamda "quloqlashtirish" siyosatining kuchayishi yoritilgan. Shuningdek, mazkur siyosatning qishloq xo'jaligi samaradorligi, xususiy tadbirkorlik va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijasida sovet agrar siyosati Turkistonda xususiy mulkchilik va tadbirkorlik institutlarining yemirilishi, iqtisodiy resurslarning davlat nazoratiga o'tishi hamda mahalliy mulkdorlar qatlamining siyosiy repressiyalar orqali tugatilishiga olib kelgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, sovet hokimiyati, agrar siyosat, xususiy mulk, musodara, davlatlashtirish, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, mulkdorlar, tadbirkorlar, paxtachilik, paxta sanoati, siyosiy repressiya, saylov huquqi, surgun, iqtisodiy siyosat.

Kirish. Sovet hukumati mamlakat xalq xo'jaligini boshqarishni o'ta markazlashtirib, ma'muriy-buyruqbozlik tamoyillari asosida siyosat yuritdi. Bu siyosat jamiyatning va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish yo'liga to'g'onoq bo'ldi. Umum davlat manfaatlarini rukach qilgan holda sovet hukumati markazlashgan iqtisodiyotni shakllantirishga shu asosda mahalliy respublikalar iqtisodiyotini markazga qaram qilib qo'ydi. Jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti ham ushbu xatarli siyosatning ta'sirida markazning xom-ashyo manbaiga aylanib qoldi. Respublikadagi boy xom-ashyo resurslari va arzon ishchi kuchi ittifoq manfaatlariga bo'ysundirib qaram holatga solib qo'ydi. Ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirish, respublikani paxta xom-ashyo bazasiga aylantirish yuzasidan maqsadli strategik dasturlar ishlab chiqildi. Sovet hukumati shu maqsaddan kelib chiqqan holda respublikada paxtachilikni rivojlantirishning bosh omili hisoblangan sug'orish, yerga ishlov berish va parvarish qilish yuzasidan alohida direktiv ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Sovetlar hokimiyati tomonidan dastlabki kunlardanoq yerga bo'lgan xususiy mulkchilik bekor qilindi [1]. Shu bilan birga, RSFSR Xalq Komissarlari Soveti 1918-yil 28 iyunda yirik sanoat va transportni yalpisiga nasionalizasiya qilish to'g'risida Dekret qabul qildi [2]. Xususiy mulk egalarining taqdiri nihoyatda ayanchli bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sovetlar yer egalarining mulklarini musodara qilgan holda kambag'al, yersiz dehqonlarga bo'lib bera boshladi. Toshkent uyezdida 15 nafar mulk egasining mablag', yer, ish hayvoni va korxonalari tortib olindi va nazorat qilish komissiyasi tayinlandi. 1918-yil mart oyida Toshkent uyezdida joylashgan «N.Pugasov Savdo uyi» ga tegishli bo'lgan mol-mulklar tortib olindi va 200 nafar kambag'aldan iborat mehnat arteli tashkil qilindi [3]. Biroq, kambag'al dehqonlarda hosildorlik past edi. Masalan, hosildorlik o'rta hol dehqon xo'jaliklarida 20-33 sentner, boy va quloq xo'jaliklarida 55-60 sentnerni tashkil etgani holda

kambag'al dehqon xo'jaligida 5,9 sentner hosil olingan. Shuningdek, chorvaning mahsuldorligi ham juda past edi. Kambag'al dehqon xo'jaligida yiliga 400-500, o'rta hol xo'jaliklarida 600-650 hamda boy va quloqlar 700-800 kilogrammdan sut sog'ib olingan [4].

Yer-mulklarni musodara qilish siyosati tufayli Andijon viloyatida 1918-1919-yillar mobaynida 40 mingdan ziyod kambag'al dehqonlar yer olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1918-yil 10 mart holatiga 8754,6 ming pud paxta va undan tayyorlangan mahsulotlar musodara qilindi va uning 7720,5 ming pudi banklar va paxtachi boylarning zavodlari, turli kompaniyalarga tegishli edi, ya'ni 88 foizi mulkdorlarga taalluqli bo'lib, zo'rlik yo'li bilan o'zlashtirilgan edi [5]. Turkiston xalqlarining birinchi Muxtor hukumati zo'rlik va kuch bilan ag'darib tashlangandan so'ng, «qirg'in asosan tijorat ahliga qarshi olib borildi, ko'plab muldorlar otib tashlandi, ularning mol-dunyosi omborlar va vagonlarga tashib keltirildi [6]. 1918-yil fevral oyida yirik sarmoyadorlaridan biri M.Mirmo'minboyev otib tashlandi. Voqyeaning ishtirokchisi M.K.Shkarupa quyidagicha eslaydi: "Fevral oyi boshlarida Andijonga kelgan F.Kolesov ko'rsatmasiga binoan Mirkomilboyning 5.000.000 tilla mablag'i tortib olindi. Boyning o'zi uning buyrug'iga ko'ra otib tashlandi" [7] va bu holat boyning "Qo'qon Muxtoriyati rahbarlari bilan til birlashtirishi sababidan" – deb asoslandi. Hamda uning barcha boyligi musodara qilish uchun tuzilgan "Mirkomil komissiyasi" qaroriga binoan davlat tassarrufiga to'liq olindi [8].

Tugatish komissiyasi M.Mirmo'minboyevning jami 6731 pud paxtasini musodara qildi. 1918-yil o'rtalariga qadar markazda korxonalarning 11 foizi davlat mulkiga aylantirilgan bo'lsa, Turkistonda bu ko'rsatkich 45 foizni tashkil etgan. Turkiston XKS raisi F.I.Kolesov 1918-yilda xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish keng ko'lamda olib borilayotgani, natijalar yaqqol ko'zga tashlanib turgani haqida yozgan edi [9]. Mulkdorlardan musodara qilingan paxta shu darajada ko'payib ketganki, Turkiston XKS raisi F.I.Kolesov Turkistondan Markazga 1 mlrd 700 mln rubllik paxta yuborish haqida ma'lumot bergan edi [10].

Natijalar va muhokama. 1918-yil bahor oylarida Turkiston ASSR paxta sanoati komiteti komissari V.Tararuxin raisligida bo'lib o'tgan yig'ilishda Farg'ona va Andijon uyezdlaridagi ahvol muhokama qilindi. Yig'ilishda: "Mablag'ga muhtojligi mavjud paxtakor dehqonlardan zudlik bilan ular qo'lida to'planib qolgan paxta, davlat mablag'lari evaziga Farg'onada 500 ming va Andijonda 1 mln rubl ajratilishi hisobidan namoyishkorona ravishda sotib olinsinki, toki paxta bilan savdo qiluvchi boylar qo'lga o'tib ketmasin. Dehqonlar ular yetishtirgan har qancha paxta davlat tomonidan sotib olinishiga ishonch hosil qilishlari lozim", degan qarorga kelindi [11]. "Otam – To'xtasin Qobulov paxtachi boylardan bo'lgan. Shuning uchun o'ttizinchi-yillarda mol-mulkimiz musodara qilinib, quloq sifatida qamalgan, mahkumlikda olamdan o'tgan", deb eslaydi qatag'on qurbonlaridan birining farzandi [12]. Zarifa Saidnosirovaning xotirlashicha, uning otasi, yirik sarmoyadorlardan biri S.Mirjalilov 1925-yil 12 dekabrda Rossiya shimolidagi Solovsk orolidagi turmada bo'ldi [13].

1936-yil Toshkentga qaytgan S.Mirjalilov 1937-yil 21 iyul kuni yana hibsga olindi va oktyabrda otib tashlandi [14]. Yirik mulkdorlardan biri A.Temirbekov barcha mol-mulkidan mahrum bo'lgach, ma'lum bir boyligini olib Sharqiy Turkiston (Qoshg'ar)ga chiqib ketishga majbur bo'ldi [15]. O'z vaqtida R.Potelyaxov, Ya.Vadyayev, S.Vadyayev hamda "Yu.Davidov savdo uyi" vakillari Turkistonning milliy hukumati tarkibiga kiritildi [16]. Buxoro yahudiylari jamoasi vakillari bo'lgan yirik sarmoyadorlarning taqdiri ham sovet hokimiyati davrida ayanchli kechdi. Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan kuch bilan ag'darib tashlangach, aka-uka Vadyayevlar xorijga chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Ya.Vadyayev Londonda manufaktura savdosi bilan shug'ullanuvchi "Britano Rumino" kompaniyasiga rahbarlik qildi va 1936-yilda shu shaharda vafot etdi. S.Vadyayev 1921-yil oxirida Parijga borib, bu yerda valyuta savdosi bilan shug'ullandi. S.Vadyayev 1943-yili Parijda vafot etdi hamda vasiyatiga ko'ra, Quddus shahriga dafn etildi [17]. Aka-uka Potelyaxovlar 1918-yil fevralda qamoqqa olindi. Potelyaxovlarning xorijdagi qarindoshlari tomonidan sovet hukumatiga yuborilgan bir necha million pud paxta evaziga VChK raisi F.Dzerjinskiyning 1918-yil 26 noyabrda qarori bilan aka-uka Potelyaxovlar qamoqdan ozod qilindi [18]. Qamoqdan ozod qilingach, Potelyaxovlar London shahriga kelib, shu yerda muqim yashab qoldi. R.Potelyaxov 1936-yilda London shahrida avtohalokat tufayli vafot etdi [19]. Tatar millatiga mansub «Aka-uka Yaushevlar» savdo tashkiloti nafaqat Turkiston, balki Rossiya imperiyasi

musulmon xalqlari hayotida muhim o'rin tutgan. Mazkur savdo tashkilotining tashkil etilish tarixi XVI – XVII asrlarga borib taqaladi. Sulola asoschisi Gaysa Yaushev (1790-1870) hisoblanadi [20].

Savdo tashkiloti Troisk shahrida joylashgan bo'lib, istiloga qadar Rossiya va o'lka o'rtasidagi savdo munosabatlarida katta daromad orttirgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston istilo qilingach, "Aka-uka Yaushevlar savdo uyi" yanada rivojlangan va do'konlariga ega bo'ldi. A.Yaushev va M.Yaushevlar xayriya tadbirlarini amalga oshirgan. Jumladan, Troisk shahrida "Muhammadiya" madrasasi va "Dorul muallimat" xotin-qizlar bilim yurtini qurganlar [21]. Qayd etish joizki, 1931-yil 15 fevral ma'lumotiga qaraganda, respublikaning 45 rayonidagi kolxozlardan 2 648 nafar mulkdorlar «quloq» sifatida haydalgan bo'lsa, 1932-yilga kelib, 3 550 nafari xuddi shunday mulkdorlar haydalgan [22]. Andijon uyezd shahar ijroqo'mining 1931-yil 17 iyundagi hujjatida birgina Bozorqo'rg'on tumanidan 131 nafar mulkdorlar «boy va quloq» sifatida surgun qilingani qayd etilgan. [23].

Kollektivlashtirish va boy xo'jaliklarni quloqlashtirish jarayonida ularni siyosiy huquqlardan, jumladan, saylov huquqidan mahrum qilish siyosati ham keng amalga oshirilgan. Birgina Samarqand shahrida 1929-yilda saylov yoshiga yetgan 86 981 saylovchining 8 772 nafari (qariyb 10 foizdan ortig'i) «sinfiy dushman» sifatida saylov huquqidan mahrum qilingan [24]. 1928-1929-yillarda o'tkazilgan saylov davomida Farg'onada 14,4 foiz mulkdorlar, 70,1 foiz savdogarlar, Andijonda 36,8 foiz mulkdorlar, 34 foiz savdogarlar va Toshkentda 21,8 foiz mulkdorlar, 47,6 foiz savdogarlar saylash huquqidan mahrum qilingan edi [25].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sovet hokimiyatining Turkistonda amalga oshirgan agrar-iqtisodiy siyosati dastlab yer va mulkni qayta taqsimlash, kambag'al va yersiz dehqonlarni qo'llab-quvvatlash shiori ostida olib borilgan bo'lsa-da, amalda xususiy mulkchilikni tugatish, iqtisodiy jihatdan mustaqil xo'jaliklarni davlat nazoratiga o'tkazish va mahalliy mulkdorlar qatlamini yo'q qilishga qaratilgan tizimli siyosatga aylangan. 1918-yildan yer, mablag', ish hayvonlari, korxonalar va paxta mahsulotlarining majburiy musodara qilinishi ushbu jarayonning dastlabki bosqichini tashkil etgan.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sovet hokimiyatining Turkistondagi agrar va iqtisodiy siyosati uch o'zaro bog'liq jarayon – xususiy mulkni tugatish, iqtisodiy resurslarni davlat tasarrufiga olish va jamiyatning iqtisodiy faol qatlamlarini siyosiy jihatdan cheklash orqali amalga oshirilgan. Yer-mulkni qayta taqsimlash va kambag'al dehqonlarni yer bilan ta'minlash kabi tadbirlar qisqa muddatli ijtimoiy maqsad sifatida ko'rsatilgan bo'lsa-da, ularning amaliy natijasi xususiy xo'jalik va tadbirkorlik institutlarining yemirilishi, mulkdorlar qatlamining tugatilishi hamda iqtisodiy hayotning markazlashgan davlat nazoratiga o'tishi bilan yakunlangan.

Shu nuqtayi nazardan, Turkistondagi sovet agrar siyosatini faqat "yer-suv islohoti" yoki "ijtimoiy tenglashtirish" jarayoni sifatida baholash yetarli emas. Uni xususiy mulkchilikning tugatilishi, mahalliy iqtisodiy elitaning siqib chiqarilishi, paxta va boshqa strategik resurslarning markaz manfaatlariga bo'ysundirilishi hamda siyosiy repressiyalar bilan uzviy bog'liq holda, mustamlakachilikdan sovetcha markazlashgan iqtisodiy boshqaruvga o'tishning murakkab tarixiy jarayoni sifatida kompleks o'rganish muhim ilmiy xulosalardan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 103.
2. Из истории гражданской войны в СССР. Сборник документов. – Москва: Наука, 1960. – С.243-264.
3. ЎЗМА, Р.29-фонд, 3-рўйхат, 1067-иш, 12-13-варақлар.
4. ЎЗМА, Р.29-фонд, 3-рўйхат, 1051-иш, 7-варақ.
5. Шайхов Э. Ўзбекистонда ленинча кооператив планнинг тантанаси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1978. – Б. 6.
6. ЎЗМА, Р.29-фонд, 3-рўйхат, 1830-иш, 59-варақ.

7. Джамалов О.Б., Блиндер И.Б., Ульмасов А.У., Живаев В.К. Экономические закономерности и преимущества некапиталистического пути развития. По материалам Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 202.
8. Қайғисиз Отабоевнинг қайғулари // Ўзбегим. –Тошкент: «Звезда Востока». 1992. – Б.79-80.
9. ЎзМА И.1612-фонд, 1-рўйхат, 41-иш. 12-13-варақлар.
10. Акмал Икром ўғли. Миркомилбой қандай шахс эди // Шарқ юлдузи, 1992. № 5. – Б.96.
11. История Коканда. – Ташкент: Фан, 1984. – С.67.
12. «Наша газета», 1918. 22 август.
13. ЎзМА, Р.25-фонд, 1-рўйхат, 49-иш, 284-варақ.
14. ЎзМА, Р.111-фонд, 1-рўйхат, 104-иш, 13-15 варақлар.
15. Халқ хотираси олдида бош эгамиз. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 46-47.
16. Каримов Н. Саидносир Мирджалилов – казначей правительства Туркестанской автономии // «Водийнома», 2018, №1. – С. 64-70.
17. Саидносирова З. Ойбегим менинг. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 51, 157-163.; Яна қаранг: Саидносир Миржалилов (1884-1937) // <https://ziyouz.uz>.
18. Яшин К. Ёднома. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – Б.47.
19. Ражабов Қ. Туркистон ҳукумати вазирларининг фаолияти ва кейинги тақдири // Ўзбек миллий давлатчилиги тарихида Туркистон Мухториятининг ўрни ва роли. Республика илмий-амалий анжумани материаллари, 2017 йил 12 октябрь. – Тошкент: Тошкент Ислон университети, 2017. – Б. 44-45.
20. Рафаэль Потеляхов // <http://bukharianjewishcongress.org>
21. Чайчиц А. Купцы Яшевы. Семейная история. – Казань: Татарское книжное издательство, 2020. – С.35-36.
22. Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сургунидаги юртдошлар қисмати. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 54.
23. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 4037-иш, 1-49-варақлар.
24. Расулов Б. XX асрнинг 20-30- йилларида Самарқандда сайлов ҳуқуқлари сиёсати //Самарқанд шахрининг 2750 йиллигига бағишланган Республика ёш олимлари конференцияси материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 111.
25. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 5023-иш, 119-варақ.

THESIS INFORMATION IN OTHER LANGUAGES

РУССКИЙ

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНОСТРАННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНЕ

Абдимуродов Шахбоз Даврон оглы

Студент 2-го курса магистратуры Ориентального университета

Научный руководитель: Якубова Мухтарам Бакаевна

Доцент Самаркандского государственного университета

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников анализируется аграрно-экономическая политика советских властей в Туркестане, в частности, конфискация частной собственности, передача земли и имущества в собственность государства, преследование помещиков и предпринимателей, а также процессы коллективизации. Исследование охватывает конфискацию земли, предприятий, фондов и хлопчатобумажной продукции с 1918 года, политико-экономические ограничения

местного экономически активного слоя населения и интенсификацию политики «кулакизации». Также раскрывается влияние этой политики на эффективность сельского хозяйства, частное предпринимательство и социально-экономическую структуру общества. Исследование доказывает, что советская аграрная политика привела к уничтожению частной собственности и предпринимательских институтов в Туркестане, передаче экономических ресурсов под государственный контроль и ликвидации местного помещичьего класса посредством политических репрессий.

Ключевые слова: Туркестан, советская власть, аграрная политика, частная собственность, конфискация, национализация, коллективизация, графство, землевладельцы, предприниматели, выращивание хлопка, хлопковая промышленность, политические репрессии, избирательное право, ссылка, экономическая политика.

ENGLISH

SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES OF FOREIGN BUSINESS ACTIVITIES IN COLONIAL TURKESTAN

Shahboz Davron oglu Abdimurodov

Second-year Master's student at Oriental university

Academic Supervisor: Mukhtaram Bakayevna Yakubova

Associate professor at Samarkand state university

Abstract. This article analyzes the agrarian and economic policy of the Soviet authorities in Turkestan, in particular, the confiscation of private property, the transfer of land and property to the state, the persecution of landowners and entrepreneurs, and the processes of collectivization based on historical sources. The study covers the confiscation of land, enterprises, funds, and cotton products since 1918, the political and economic restrictions on the local economically active stratum, and the intensification of the policy of "kulakization". It also reveals the impact of this policy on agricultural efficiency, private entrepreneurship, and the socio-economic structure of society. The study substantiates that the Soviet agrarian policy led to the destruction of private property and entrepreneurial institutions in Turkestan, the transfer of economic resources to state control, and the liquidation of the local landlord class through political repression.

Key words: Turkestan, Soviet power, agrarian policy, private property, confiscation, nationalization, collectivization, earldom, landowners, entrepreneurs, cotton growing, cotton industry, political repression, suffrage, exile, economic policy.